



TARIXIY MEROS MILLIY O'ZLIKNING MA'NAVIY ASOSI SIFATIDA

Aorqulova Anora Karimberdi qizi

Guliston tumanidagi 16-umum ta'lim maktabi Tarix o'qituvchisi

Perfect University Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy merosning milliy o'zlikni shakllantirishdagi ma'naviy, madaniy va ijtimoiy ahamiyati ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarixiy meros jamiyatning o'tmish bilan bugunni bog'lovchi xotira maydoni bo'lib, u xalqning o'zini anglash, tarixiy davomiylikni his etish, madaniy qadriyatlarni asrash va kelajak avlodga uzatishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada tarixiy xotira, madaniy meros, milliy identitet va ma'naviy vorisiylik tushunchalari o'zaro bog'liqlikda yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida tarixiy merosni asrash va targ'ib qilish milliy o'zlikni mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri ekani asoslab beriladi. Xulosa sifatida, tarixiy meros milliy o'zlikning faqat ramziy belgisi emas, balki uning ma'naviy poydevori, ijtimoiy xotirasi va madaniy barqarorligini ta'minlovchi tayanch omil ekani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: tarixiy meros, milliy o'zlik, tarixiy xotira, ma'naviy vorisiylik, madaniy identitet, nomoddiy meros, milliy qadriyatlar, ma'naviy taraqqiyot.



HISTORICAL HERITAGE AS THE SPIRITUAL FOUNDATION OF NATIONAL IDENTITY

Abstract. This article analyzes the spiritual, cultural, and social significance of historical heritage in the formation of national identity on the basis of scholarly literature and legal documents. Studies show that historical heritage serves as a field of memory linking the past and the present, and plays an important role in self-understanding, the sense of historical continuity, the preservation of cultural values, and their transmission to future generations. The article examines the interrelation of historical memory, cultural heritage, national identity, and spiritual continuity. It also substantiates that, in the context of Uzbekistan, safeguarding and promoting historical heritage is one of the key directions for strengthening national identity. In conclusion, historical heritage is interpreted not merely as a symbolic marker of national identity, but as its spiritual foundation, social memory, and a key factor ensuring cultural stability.

Keywords: historical heritage, national identity, historical memory, spiritual continuity, cultural identity, intangible heritage, national values, spiritual development.

ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ КАК ДУХОВНАЯ ОСНОВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье на основе научной литературы и нормативно-правовых документов анализируются духовное, культурное и социальное значение исторического наследия в формировании национальной идентичности. Исследования показывают, что историческое наследие выступает пространством



памяти, связывающим прошлое и настоящее, и играет важную роль в самопознании народа, осмыслении исторической преемственности, сохранении культурных ценностей и передаче их будущим поколениям. В статье во взаимосвязи раскрываются понятия исторической памяти, культурного наследия, национальной идентичности и духовной преемственности. Также обосновывается, что в условиях Узбекистана сохранение и популяризация исторического наследия является одним из важнейших направлений укрепления национальной идентичности. В выводах показано, что историческое наследие является не только символическим признаком национальной идентичности, но и её духовным фундаментом, социальной памятью и фактором культурной устойчивости.

Ключевые слова: историческое наследие, национальная идентичность, историческая память, духовная преемственность, культурная идентичность, нематериальное наследие, национальные ценности, духовное развитие.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash, uni mustahkamlash va yosh avlod ongiga chuqur singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalq o'zining tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarini orqali o'zligini anglaydi. Shu jihatdan tarixiy meros millatning kechagi kuni bilan bugungi hayoti va ertangi istiqboli o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydigan muhim omildir. U xalqning shunchaki o'tmishdan qolgan yodgorliklari yig'indisi emas, balki uning tarixiy tafakkuri, ma'naviy qadriyatlarini, madaniy qiyofasi va ijtimoiy xotirasining amaliy ifodasidir.



Milliy o'zlik masalasi faqat etnik mansublik yoki hududiy birlik bilan belgilanmaydi. U, eng avvalo, xalqning o'z tarixini qanday anglashiga, qanday qadriyatlarni avloddan avlodga uzatishiga va qaysi ma'naviy tayanchlarga suyanishiga bog'liq. Shu ma'noda tarixiy meros milliy o'zlikning ichki mazmunini boyitadi, unga tarixiy izchillik, ma'naviy chuqurlik va madaniy barqarorlik baxsh etadi. Ayniqsa, mustaqillik sharoitida tarixiy merosga yangicha munosabatning shakllanishi milliy tiklanish, tarixiy adolatni qaror toptirish va xalqning o'z ma'naviy ildizlariga qaytish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi.

Tarixiy merosni milliy o'zlikning ma'naviy asosi sifatida o'rganish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki merosni anglash va qadrlash jamiyatning ma'naviy birligini mustahkamlaydi, yosh avlodda tarixiy tafakkur va milliy g'ururni shakllantiradi, xalqning madaniy uzviyligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham tarixiy meros va milliy o'zlik o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy tahlil qilish zamonaviy gumanitar fanlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Tarixiy meros tushunchasi mazmunan nihoyatda keng bo'lib, u moddiy va nomoddiy shakllarda namoyon bo'ladi. Moddiy merosga me'moriy obidalar, arxeologik yodgorliklar, tarixiy qo'lyozmalar, qadimiy shaharlar, maqbaralar, masjid va madrasalar kirsa, nomoddiy merosga urf-odatlar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi, milliy hunarmandchilik an'analari, og'zaki tarix, axloqiy qarashlar va ijtimoiy xotira elementlari kiradi. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida madaniy meros obyektlari xalqning umummilliy boyligi sifatida belgilanishi bevosita tarixiy merosning milliy hayotdagi



ulkan o'rnini ko'rsatadi [1]. Mazkur yondashuvdan ko'rinadiki, meros faqat o'tmishni eslatib turuvchi tarixiy qoldiq emas, balki millatning o'zini anglashida faol ishtirok etadigan ijtimoiy-ma'naviy hodisadir.

Milliy o'zlikning shakllanishida tarixiy xotira alohida ahamiyatga ega. Millat o'zining umumiy tarixiy xotirasi orqali birlashadi, o'zining qayerdan kelganini va qanday yo'lni bosib o'tganini anglaydi. Benedict Anderson millatni "tasavvur etilgan hamjamiyat" sifatida tavsiflar ekan, uning a'zolari bir-birini shaxsan tanimasalar-da, umumiy tarixiy tasavvur va ma'naviy birdamlik asosida bir butunlikni his etishini ko'rsatadi [2]. Bu tasavvur tarixiy meros, milliy ramzlar, tarixiy shaxslar, xotira makonlari va madaniy belgilar orqali mustahkamlanadi. Demak, tarixiy meros millatning tasavvuriy birligi uchun ramziy va ma'naviy asos yaratadi.

Anthony D. Smith milliy identitetni shakllantiruvchi omillar qatorida umumiy tarixiy xotira, tarixiy hudud, umumiy afsonalar, ramzlar va madaniy qadriyatlarni alohida ko'rsatadi [3]. Olimning fikricha, millatning yashovchanligi va barqarorligi uning tarixiy-madaniy tayanchlariga bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tarixiy meros milliy identitetning tashqi ko'rinishi emas, balki uning ichki ma'naviy yadrosi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki aynan tarixiy meros orqali xalq o'z o'tmishini umumlashtiradi, o'zini boshqa xalqlardan farqlaydi va o'zining noyob madaniy qiyofasini saqlab qoladi.

Tarixiy meros va milliy o'zlik munosabatini tarixiy xotira nazariyasi doirasida yanada chuqurroq tushuntirish mumkin. Pierre Nora o'zining mashhur tadqiqotlarida xotira makonlari tushunchasini ilgari surib, milliy xotira alohida yodgorliklar, sanalar, ramzlar, tarixiy joylar va marosimlar orqali jamiyat ongida saqlanib qolishini ko'rsatadi



[4]. Bunday xotira makonlari tarixiy voqelikni ramziy shaklda mujassam etadi va jamoaviy identitetni mustahkamlaydi. Masalan, tarixiy shaharlar, maqbaralar, me'moriy ansambllar yoki muqaddas qadamjolar jamiyat a'zolari uchun oddiy obyekt emas, balki ma'naviy xotira markazlari hisoblanadi. Ular orqali xalq o'zining tarixiy davomiyligini his qiladi, milliy sha'n va g'urur tuyg'usini boshdan kechiradi.

Jan Assmannning madaniy xotira haqidagi qarashlari ham tarixiy merosning milliy o'zlikdagi ahamiyatini ochib beradi. Uning ta'kidlashicha, madaniy xotira jamiyatda yozma matnlar, timsollar, rasm-rusumlar va tarixiy belgilar orqali uzoq muddat saqlanadi hamda avlodlararo uzviylikni ta'minlaydi [5]. Bu nazariya asosida aytish mumkinki, tarixiy meros millatning o'z-o'zini anglashida vaqt sinovidan o'tgan ma'naviy mexanizm vazifasini bajaradi. Agar jamiyat o'z madaniy xotirasini saqlay olsa, u o'z tarixiy va ma'naviy o'zagini ham asrab qoladi. Aksincha, tarixiy xotiraning zaiflashuvi milliy o'zlikning yemirilishiga olib kelishi mumkin.

Tarixiy merosning milliy o'zlik uchun ahamiyati faqat tarixiy bilim berish bilangina cheklanmaydi. U xalqning ma'naviy immunitetini shakllantiradi. Chunki o'z tarixini yaxshi bilgan, o'z ajdodlari yaratgan sivilizatsion boyliklarni anglagan jamiyat turli tashqi mafkuraviy bosimlar qarshisida barqarorroq bo'ladi. Tarixiy meros xalqning ma'naviy tayanchi sifatida unga o'z qadriyatlarini himoya qilish, ma'naviy bo'shliqdan qochish va o'z rivojlanish yo'lini ongli ravishda tanlash imkonini beradi. Bu jihatdan tarixiy meros milliy o'zlikni nafaqat shakllantiradi, balki uni himoya ham qiladi.

UNESCOning nomoddiy madaniy merosga doir yondashuvida ham meros jamoalar va guruhlar tomonidan o'z madaniy identitetining tarkibiy qismi sifatida e'tirof



etilishi qayd etiladi [6]. Bu g'oya nihoyatda muhim: demak, meros faqat o'tmishdagi hodisalarning qoldig'i emas, balki bugungi jamiyat tomonidan yashatilayotgan, tan olinayotgan va ma'no yuklanayotgan ijtimoiy hodisadir. Ayniqsa, nomoddiy meros shakllari — xalq bayramlari, marosimlar, og'zaki rivoyatlar, qo'shiq va dostonlar, milliy axloqiy me'yorlar — milliy o'zlikning kundalik hayotdagi tirik ko'rinishlari hisoblanadi. Ular orqali millat o'z qadriyatlarini amaliy shaklda namoyon etadi.

Tarixiy merosning ma'naviy asoslilik xususiyati uning vorisiylikni ta'minlashidagi roli bilan ham belgilanadi. Har bir avlod avvalgi avlodlardan nafaqat moddiy boylik, balki ma'naviy tajriba ham qabul qiladi. Bu tajriba tarixiy meros orqali uzatiladi. Ajdodlar yaratgan me'moriy obidalar, ilmiy maktablar, badiiy tafakkur namunalari, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va tarixiy an'analar keyingi avlodga ma'lum qadriyatlar tizimini yetkazadi. Shu sababli tarixiy meros millatning ma'naviy zanjirini bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Unda xalqning tarixiy donoligi, estetik qarashlari, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ideallari mujassam bo'ladi.

Peter Howard tahriridagi tadqiqotlarda meros identitetlarni shakllantirishda muhim vosita ekani, u xotira, ramz va tegishlilik hissini yaratishi ta'kidlanadi [7]. Bu yondashuv tarixiy merosning shaxsiy va jamoaviy identitet o'rtasidagi ko'prik ekanini ko'rsatadi. Ya'ni inson o'zini muayyan xalqning, madaniyatning va tarixiy makonning vakili sifatida his qilishi uchun u o'sha xalqning merosiga ma'naviy jihatdan daxldor bo'lishi lozim. Shu ma'noda tarixiy meros milliy o'zlikning shakllanishida faqat kollektiv darajada emas, balki individual ong darajasida ham ta'sir ko'rsatadi.



O'zbekiston misolida tarixiy merosning milliy o'zlikni mustahkamlashdagi roli ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida tarixiy xotirani tiklash, ulug' ajdodlar merosini qayta o'rganish, me'moriy obidalarni restavratsiya qilish, muqaddas qadamjolarni obod etish va madaniy merosni davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylantirish milliy tiklanish jarayonining ajralmas qismiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishga qaratilgan qarorida meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish va ilmiy asosda muhofaza etish vazifalariga alohida urg'u berilgan [8]. Bu esa davlat siyosati darajasida tarixiy meros millatning ma'naviy boyligi va o'zligini anglash vositasi sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

Tarixiy merosning milliy o'zlik bilan bog'liq yana bir muhim jihati uning tarbiyaviy salohiyatidadir. Yosh avlod ajdodlar merosini chuqur bilsa, unda tarixiy tafakkur, milliy iftixor va fuqarolik mas'uliyati shakllanadi. O'z tarixini bilgan yosh avlod o'ziga nisbatan hurmat tuyg'usiga, o'z millatiga nisbatan iftixorga va mamlakat kelajagiga daxldorlik hissiga ega bo'ladi. Shu ma'noda tarixiy merosni o'rganish faqat tarix fanining vazifasi emas, balki ta'lim-tarbiya tizimining strategik yo'nalishidir. UNESCO materiallarida ham madaniy merosni bilish shaxsning ijobiy identitetini shakllantirishda muhim omil ekani qayd etilgan [9].

Tarixiy meros milliy o'zlikning ma'naviy asosi sifatida ijtimoiy birdamlikni ham ta'minlaydi. Chunki umumiy tarixiy xotira va qadriyatlar jamiyat a'zolarini yagona ma'naviy makonda birlashtiradi. Turli hudud, kasb yoki ijtimoiy guruhlarga mansub insonlar umumiy tarixiy meros orqali o'zlarini bir millat vakili sifatida his etadilar. Shu



bois tarixiy meros jamiyatni birlashtiruvchi kuchdir. U nafaqat o'tmish xotirasi, balki bugungi birdamlik va kelajakdagi taraqqiyotning ham ma'naviy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixiy merosni asrash masalasi bugungi kunda faqat restavratsiya yoki muzeylashtirish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Uni ilmiy tadqiq etish, ta'lim tizimiga singdirish, ommaviy madaniyatda to'g'ri talqin qilish, yoshlar ongiga sodda va mazmunli shaklda yetkazish ham zarurdir. Aks holda meros obyektlari mavjud bo'lsa-da, ular milliy o'zlikni shakllantirishdagi faol vazifasini to'liq bajara olmaydi. Demak, tarixiy merosni milliy o'zlikning ma'naviy asosi sifatida anglash uchun uni faqat saqlash emas, balki yashatish, talqin qilish va avlodlar ongiga singdirish lozim.

Umuman olganda, tarixiy meros milliy o'zlikning eng muhim ma'naviy tayanchlaridan biridir. U xalqning tarixiy xotirasini mujassam etadi, madaniy uzviylikni ta'minlaydi, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi va yosh avlod tarbiyasida mustahkam ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun tarixiy merosga munosabat jamiyatning o'z-o'ziga munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. O'z merosini anglagan, asragan va qadrlagan jamiyatgina o'z milliy o'zligini mustahkam saqlab qola oladi.

Xulosa. Tarixiy meros milliy o'zlikning ma'naviy asosi sifatida xalqning tarixiy xotirasi, madaniy davomiyligi va o'zini anglash jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U millatni o'tmish bilan bog'laydi, bugungi ma'naviy hayotga mazmun baxsh etadi va kelajak avlodga qadriyatlar tizimini uzatadi. Shu jihatdan tarixiy meros milliy o'zlikning tashqi belgisi emas, balki uning ichki mazmunini belgilovchi tayanch omildir.



Tarixiy merosni asrash, o'rganish va targ'ib qilish masalasi bugungi kunda milliy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki o'z merosini chuqur anglagan xalqgina o'z ma'naviy qiyofasini saqlab qoladi, tarixiy davomiylikni ta'minlaydi va globallasuv sharoitida o'ziga xosligini yo'qotmaydi. Shu bois tarixiy merosga munosabat davlat siyosati, ilmiy tadqiqot, ta'lim-tarbiya va jamoaviy xotira tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida. 2001-yil 30-avgust, № 269-II.
2. Anderson B. *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. Revised edition. London: Verso, 2006.
3. Smith A. D. *National Identity*. London: Penguin Books, 1991.
4. Nora P. *Between Memory and History: Les Lieux de Mémoire // Representations*. 1989. No. 26. P. 7–24.
5. Assmann J. *Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination*. Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
6. UNESCO. *Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage*. Paris, 2003.
7. Howard P. (ed.). *The Routledge Research Companion to Heritage and Identity*. London; New York: Routledge, 2013.



8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2018-yil 19-dekabr, PQ-4068-son.

9. UNESCO. Building a Positive Identity through Cultural Heritage – the Story of Mohamed Ali. 2021.